

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI VA SHART- SHAROITLARI

Niyozova Maftuna Normaxmat qizi

*Termiz davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi,
maftuuun93@gmail.com*

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, tashxis, pedagogik jarayon, psixologik-pedagogik diagnostika, metod, faoliyat, test, jarayon, o'quv material, texnologiya.

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanishda o'yinlardan foydalanish, pedagogik metodlarni amaliyotga qo'llash orqali bolalarga bilim berish, pedagogik diagnostikadan foydalanishning mavjud imkoniyatlari va shart-sharoitlari to'g'risida yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng erkin fikrlaydigan, o'z-o'zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa, eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni talab etmoqda.

Hozir har bir pedagog, metodist, o'qituvchi, tarbiyachi bo'lishidan qat'iy nazar o'zining muammolariga uzoqni ko'zlab qarashi, ya'ni hozir nima bo'lyapti, kelajakda nima bo'ladi: "Ish faoliyatimda o'z yo'nalishim bo'yicha nimaga erishmoqchiman" degan savolga javob izlashi kerak. Bu sizning o'sish tomonga – ijodiy yo'lingizning o'sishiga qarab ketishingizdir.

Bugungi kunda katta e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilayotgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabatini tahlil qilish, ularning qiziqishlari va motivlarini o'rganish muhim. Chunki ta'lim-tarbiyaga nisbatan ongli munosabatda bo'lgan bolalardan yurt taqdiri va kelajagi uchun qayg'uradigan shaxslar shakllanadi, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda pedagogik diagnostika ishlarini olib borish zarur.

"Diagnostika" tushunchasi pedagogikaga tibbiyotdan kelgan va u uzoq vaqt davomida olimlarning ta'lim jarayonida ishlatilishining qonuniyligi to'g'risida baxs munozaralar uyg'otgan. Har bir zamonaviy tarbiyachi, uning faoliyati samaradorligini baholash, ta'lim dasturlari samaradorligini tahlil qilish va tarbiyalash usullari diagnostikaga tayanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalash va o'qitishda pedagogik taxshxis qo'yish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir. Har bir yosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z vaqtida o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bolalarning nazoratini yetakchi usul sifatida qo'llashadi. Ushbu usul bolalarning rivojlanish dinamikasini, asosiy ma'lumotlarni to'plash, boshqa diagnostika usullari orqali olingan ma'lumotlarni tekshirish uchun eng samarali vositadir. Bu faqat bolaning xatti-harakatlarida baho berishga imkon beradi, ammo bu xatti-harakatning sabablari haqida javob bermaydi. Pedagogik diagnostika pedagogik monitoringning asosi bo'lib, doimiy, ilmiy asoslangan, prognostik va pedagogik jarayonning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika nafaqat bolalarni o'rganish, ularning shaxsiy xususiyatlari, balki tarbiya tizimining imkoniyati va resurslari, maktabgacha ta'lim tashkilotida va tarbiyalanuvchilar oilasida tashkil etilgan pedagogik jarayondir. Shu sababli, agar bola bilan tashxisiy suhbat o'tkazilsa, dastur materialining natijalari asosida tadqiqotchi o'qitish usullarining samaradorligi, tarbiyachining malakasi, pedagogik ta'sirning yetarliligi va bilish jarayonining shartlari va shakllarini tashkil etishni bilib oladilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik diagnostika shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalarni o'qitish, pedagogik jarayonni tashkil etishdagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularning malakasi darajasini aniqlashga qaratilgan. Tashxisiy natijalar tadqiqotchi tomonidan pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarini faol ravishda tarbiyalash, tarbiyalash usullari va vositalarini to'g'ri tanlash, bolalar bilan ishlashda muammolar yoki qiyinchiliklarni aniqlashda o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun foydalaniladi.

Hozirgi sharoitda mamlakatimizda psixologik- pedagogik psixodiagnostik qo'llanmalardan yoshlarni kasbga tayyorlashda, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda shaxsdagi psixologik rivojlanishini, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar muammosining nimaga qaratilishini o'rganishga yordam beradi.

Individual yondashish maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini o'rganish shart ekanligi har bir davlat hujjatlarida aks ettirilgan. Bolalarning pedagogik diagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun yetakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi.

O'yin va o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan pedagogik tadqiqotlar bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Bolada o'tkazilgan pedagogik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga egadir, chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv-tarbiyaviy ta'sirini hisobga olgan holda shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlash imkonini yaratiladi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vaznning ortishi, sezgi a'zolarining mukammallashuvi, harakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'liqdir. Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlari va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmuni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi.

Shunga muvofiq tarzda ta'lim- tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, ta'assurotlar shakllana boshlaydi.

2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va ularning o'yin hamda tasviriy faoliyatga o'tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o'z-o'zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak atrofidagi tabiat to'g'risida, ijtimoiy hayot, kishilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar. Shuningdek ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi.

Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'qish asosiy faoliyat bo'lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola o'zini maktab o'quvchisi deb tushuna boshlaydi.

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma- xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining (hissiy va hissiy-predmetli muomalasining) eng oddiy turlari unda tassurotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi.

Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo'l bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xohishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi

o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofda narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin xayolni rivojlantirishga, atrofda voqelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofda tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3-4 yoshda ta'lim paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar hayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi. Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha qabul qilingan Maktabgacha ta'lim davlat standarti, "Ilk qadam" tayanch dasturi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari orqali ta'minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta'lim tizimi va uning tarkibiy va g'oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning asosiy negizi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabdagi ta'lim-tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish izchillik ifodasi hisoblanadi.

Bolalar muntazam ta'lim olish jarayonida, maktabgacha davrning oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini:

- Tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish;
- Tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni;
- Kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullardan foydalangan holda ishni bajarish va natijaga erishish;
- O'z xatti-harakati, xulq-atvori, faoliyati va topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasi;
- O'zining va boshqalarning ishlariga tanqidiy baho bera olish qobiliyatlarini egallay olishlari;
- Tarbiyachi tomonidan qo'yilgan ma'lum talab va qoidalarga ongli ravishda bo'ysunish ko'nikmasini tarkib toptirish zarurdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining pedagogik diagnostikasida o'yinlar ham vosita, ham metod, ham yo'llari bo'la oladi. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi sababli turli topshiriqlarni o'yin qoidasi sifatida qabul qiladilar va bor imkoniyatlari bilan bajara oladilar. O'yinda topshiriq bir xil bo'lsada ammo bolalarning buni bajarishda turli farqlarni ko'ramiz. Aynan shu farqlar bizga diagnostika uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Аванесов.В.С.“Педагогическая диагностика”, Основы научной организации педагогического контроля в высшей школе, 2002.
2. Asadov M, Alimxodjayeva S.N. “Psixologik tashxis metodikalari” (Olti yoshli bolalarni maktabga psixologik pedagogik tayyorligini o'rganish” Toshkent 2007
3. Богачкина Н. А, Скворцова. С.Н, Имашева.Е.Г. “Педагогика и психология”: учеб. пособие – М. : Издательство «Омега-Л», 2009.
4. Лаврова Л.Н.,Чеботарева И.В “Педагогическая диагностика в детском саду в условиях реализации” ФГОС ДОООО «ТЦ Сфера», оформление, 2017
5. Matmusayeva M “Pedagogik diagnostika” Ma'ruza matnlari “Qo'qon” 2010.
6. Durdikulovich K. A. THE ROLE OF TEACHER-STUDENT TRADITIONS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL SINGING //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 112-114
7. Kosimov, Abdulaziz. "SCIENTIFIC FIELD-SCIENTIFIC PROCESS (ACADEMICIAN AKMAL SAIDOV'S "COMPARATIVE INTRODUCTION TO THE BOOK" INTRODUCTION TO LITERATURE"." Конференции. 2020
8. Durdikulovich K. A. MUSIC PEDAGOGICAL SKILLS OF A TEACHER OF MUSIC CULTURE //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 28-31.